

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA LEKSEMASINING AFORIZMLARDA IFODALANISHI

Bo'riyeva Aziza Abduvait qizi

Termiz davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi ota leksemasi ishtirok etgan aforizmlar chog'ishtirma-lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Ikkala tilda ham ota konsepti jamiyatning ijtimoiy-madaniy dunyoqarashi, urf-odatlar va mentaliteti bilan bog'liq ravishda turlicha semantik yuklamalarga ega. Tadqiqotda ota obrazining aforizmlardagi ma'no ko'lamlari - donishmandlik, mas'uliyat, himoya, kuch, tarbiya kabi semantik maydonlar asosida solishtirildi. Ingliz tilida individualizm va shaxsiy erkinlik ruhidagi aforizmlar ustun bo'lsa, o'zbek aforizmlarida oilaviy birlik, hurmat va tarbiyaviy qadriyatlarga urg'u berilgani aniqlangan.

Abstract. This article analysis of the aphorisms in the English and Uzbek languages with the participation of the parent lexeme are analyzed from a cross-linguistic point of view. In both languages, the concept of father has different semantic loads related to the socio-cultural outlook, customs and mentality of the society. In the study, the scope of meaning of the image of the father in aphorisms was compared on the basis of semantic fields such as wisdom, responsibility, protection, strength, education. In English, aphorisms in the spirit of individualism and personal freedom prevail, while in Uzbek aphorisms, family unity, respect and educational values are emphasized.

Kalit so'zlar: ota leksemasi, aforizmlar, ingliz tili, o'zbek tili, chog'ishtirma lingvistika, konsept, paremiologiya.

Key words: parent lexeme, aphorisms, English language, Uzbek language, hybrid linguistics, concept, paremiology.

Har bir millatning tili va madaniyati uning xalqning dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiradi. Ota tushunchasi nafaqat biologik, balki ijtimoiy,



madaniy, va etnik jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Ota konsepti xalqning oilaviy tizimini, gender rollarini, qadriyatlarini va an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. Ingliz va o'zbek tillaridagi ota konsepti, o'zaro qiyoslash orqali, ikki millatning oila va ijtimoiy hayotga bo'lgan yondashuvini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi[1].

Ingliz tilida father so'zi asosiy birlik sifatida ishlatiladi. Bu so'z nafaqat biologik otani, balki ijtimoiy, yuridik va psixologik otani ham anglatadi. Ingliz madaniyatida ota konsepti quyidagi semantik qatlamlarga ega:

Biologik ota: Asosan, biron-bir bolani dunyoga keltirgan erkakni anglatadi.

Ijtimoiy ota: Bolaning jamiyatdagi ijtimoiy roli va ota bilan bog'lanish o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Bu yerda ota ko'pincha ota-onaning jamiyatdagi pozitsiyasini, jamiyatga bo'lgan mas'uliyatini anglatadi.

Ingliz tilidagi father so'zi, nafaqat oilaviy kontekstda, balki ijtimoiy va siyosiy sohalarida ham keng qo'llaniladi. Ingliz madaniyatida ota konsepti ko'proq shaxsiy erkinlik va mustaqillikka asoslangan. Ota ko'pincha farzandlarini mustaqil va mas'uliyatli bo'lishga undaydi. Bunda otaning roli bolalar uchun hayotiy yo'llarni ko'rsatib berish, lekin ularga o'z yo'llarini tanlashda erkinlik berishdir[2].

Father as a Role Model: In the English-speaking world, fathers are often seen as role models who instill values such as independence, responsibility, and leadership in their children. The idea of the father being a figure of authority and strength is widely acknowledged, but at the same time, fathers are encouraged to be emotionally available and engaged with their children.

Father's Day: This celebration highlights the cultural importance of fatherhood in English-speaking countries. It is a day to honor fathers for their contributions to the family and society, which shows the high regard for the father figure in their roles as both caretakers and guides.

O'zbek madaniyatida ota-ona hurmatga sazovor shaxslar sifatida qaraladi. O'zbek tilidagi "ota" so'zi, oiladagi ota-ona o'rtasidagi ijtimoiy mas'uliyatni va jamiyatda oilaning ijtimoiy statusini ta'kidlaydi. Ota, oilaning boshlig'i bo'lib,

bolalariga ma'naviy va axloqiy tarbiya beradi, hamda ularni dunyoqarash va qadriyatlar bilan shakllantiradi.

Ota va jamiyat: O'zbek jamiyatida ota oilaning mas'uliyatli a'zosi sifatida ko'riladi. Ota nafaqat oilaning moddiy ta'minotini ta'minlashga mas'ul bo'lib, balki oilaning ijtimoiy va madaniy hayotida ham alohida o'rin egallaydi. Ota va oilaning jamiyatdagi o'rni o'rtasida kuchli bog'lanish mavjud, ota har doim jamiyatda muhim qarorlar qabul qiluvchi shaxs sifatida ko'rsatiladi.

Ota-ona hurmati: O'zbek xalqida ota-ona hurmati va ularning oiladagi roli, bolalarga yuqori darajada tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'zbek tilidagi frazeologik birliklar va maqollar, ota-ona sevgisi va hurmatini, oila muhimligini ifodalashda keng qo'llaniladi.

Aforizmlar xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va ma'naviy-ma'rifiy merosini mujassam etuvchi muhim lingvomadaniy birlikdir. Ularda muayyan leksemalar — xususan *ota* konsepti — jamiyatning ijtimoiy-madaniy tajribasi asosida mazmun kasb etadi. *Ota* obrazining aforizmlardagi talqini nafaqat tilning semantik tizimini, balki milliy mentalitetni ham aks ettiradi.

Inglizcha: *Dads are most ordinary men turned by love into heroes, adventurers, story-tellers, and singers of song* [Dadalar sevgi tufayli qahramonlar, sarguzashtchilar, hikoyachilar va qo'shiqchilarga aylangan eng oddiy odamlardir]. (**Pam Brown**).

O'zbekcha: **Otaning duosi bilan ish bitar.**

A father is the one friend upon whom we can always rely [Ota biz doimo tayanishimiz mumkin bo'lgan yagona do'stdir]. (**Emile Gaboriau**).

O'zbekcha: **Otaning o'gitida hikmat bor.**

Inglizcha: *My father gave me the greatest gift anyone could give another person, he believed in me* [Otam menga har kim boshqa odamga berishi mumkin bo'lgan eng katta sovg'ani bergan, u menga ishongan]. (**Jim Valvano**).

Inglizcha: *I love my father as the stars – he's a bright shining example and a happy twinkling in my heart* [Men otamni yulduzlardek sevaman – u mening qalbidam yorqin ibrat va quvonchli miltillovchidir]. (**Terri Guillemets**).

Ingliz va o'zbek tillaridagi ota leksemasi ishtirok etgan aforizmlar lingvomadaniy jihatdan boy va ko'p qatlamli ma'no doirasiga ega. O'zbek aforizmlarida ota – oilaviy birlik, tarbiya, duoning timsoli bo'lsa, ingliz aforizmlarida ota – mas'uliyatli, mehribon, shaxsiy rivojlanishga yo'naltiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa har ikki xalqning mentaliteti va qadriyatlaridagi farq va o'xshashliklarni ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ш.Шомақсудов, Ш.Шорахмедов. Маънолар маҳзани. – Тошкент. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – 448 б.
2. Steinbek J. The Grapes of Wrath. – London: Penguin Books, 1992. – 105 p.
3. <http://www.webspace.ship.edu/cgboer/jung.html>.
4. <https://hikmatlar.uz/quote/2572>
5. <https://izoh.uz/uz/word/ato>
6. <https://izoh.uz/uz/word/ota>